

**«I'PAK YO'LI» TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

---

**«I'PAK YO'LI» TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI**

**XOLIQOV NODIRJON ABDUXALIL O'G'LI**

**ZIYORAT TURIZMIGA OID DESTINATSIYALARNI  
RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEXANIZMLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati (iqtisodiyot fanlari)**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Sontents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Xoliqov Nodirjon Abduxalil o‘g‘li**

Ziyorat turizmiga oid destinatsiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish (Samarqand viloyati misolida) ..... 3

**Халиков Нодиржон Абдухалил угли**

Совершенствование организационно-экономических механизмов развития дестинаций паломнического туризма (на примере Самаркандской области).27

**Kholikov Nodirjon Abduxalil ugli**

Providing organizational and economic mechanisms for the development of pilgrimage tourism destinations (in the case of Samarkand region) ..... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works. .... 57

**«I'PAK YO'LI» TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**«I'PAK YO'LI» TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI**

**XOLIQOV NODIRJON ABDUXALIL O'G'LI**

**ZIYORAT TURIZMIGA OID DESTINATSIYALARNI  
RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati (iqtisodiyot fanlari)**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Iqt2849 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb sahifasi (www.univ-silkroad.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Turdibekov Xasan Ibragimovich**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Ibragimov Nutfillo Salimovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Axmedov Ikrom Akramovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.I.145.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_\_\_" soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel: (998 90) 213-89-07; Faks:(998 66) 240-67-68, e-mail: science-dept@univ-silkroad.uz, info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya bilan "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№14 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel.: (99866) 240-67-68; Faks: (998 66) 240-67-68; e-mail: info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi  
(2024-yil "\_\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_-raqamli reestr bayonnomasi).

**A.A.Eshtayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, i.f.d., professor

**O.M.Pardayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, i.f.d., professor

**B.Sh.Safarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda ziyorat turizmi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim tarmog'iga aylangan bo'lib, mamlakatlar iqtisodiy o'sishi va madaniy aloqalarini kengaytirishga katta hissa qo'shmoqda. Bu turizm turi diniy va ma'naviy merosni saqlash, infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Oxford Business Group xalqaro konsalting firmasi ma'lumotlariga ko'ra, "har yili taxminan 330 million kishi ziyorat maqsadlariga ko'ra sayohat qiladi va bu sayohatlar ziyoratlarni, shuningdek, yil davomida muhim tarixiy va diniy joylarga ekskursiyalarni o'z ichiga oladi. Xalqaro turistlarning taxminan 25 foizi ushbu turizm turiga qiziqish bildirmoqda. 2023 yilda ziyorat turizmdan global daromad 15,1 milliard AQSh dollari tashkil etgan va 2033 yilga kelib bu ko'rsatkich 41 milliard dollarga yetishi kutilmoqda"<sup>1</sup>. Bu borada, ziyorat turizmi nafaqat turistlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun ruhiy makonlarga jalb qiladi, balki mamlakatlar uchun katta iqtisodiy foyda keltiradi. Shu jihatdan ham bugungi kunda ziyorat turizmiga oid destinatsiyalarni rivojlantirish zamonaviy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda turizmini samarali rivojlantirish, madaniy-meros va ziyoratgoh salohiyatiga ega bo'lgan destinatsiyalar rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish, yangi infratuzilma yaratishga investitsiya kiritish va aholini ziyorat turizmga jalb qilish darajasini oshirishga qaratilgan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, jahon iqtisodiyotida turizm sohasi yuqori daromadli va aholining bandligini ta'minlash bo'yicha yetakchiligini hisobga olgan holda, hududlarda ziyorat turizmini samarali rivojlantirish, xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan infratuzilmani takomillashtirish, qulay va maqbul ziyorat turizm muhitini shakllantirish, turistik destinatsiyalarning strategiyalarini ishlab chiqish yo'llarini takomillashtirish, transport logistikasini takomillashtirish, ichki va tashqi yo'nalishlarni kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, shuningdek madaniy tadbirlar tashkil etish va targ'ibotlar olib borish, hududiy turizm sohasi ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish va prognozlash, turizm bozorining turli segmentlariga mo'ljallangan turistik mahsulot va xizmatlarni diversifikatsiya qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralmoqda.

Yangi O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, turizmini iqtisodiyotimizning strategik tarmoqlaridan biriga aylantirish orqali milliy iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o'zgartirish, ziyoratchilar sonini oshirish hamda madaniy-meros ob'ektlar restovratsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish kabi bir qator vazifalar, shuningdek, ularni amalga oshirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi. "Ziyorat turizmi dasturi doirasida sayohatga keluvchilar sonini hozirgidan uch barobar ko'proqqa oshiramiz. Ana shu ezgu maqsadda tabarruk ziyorat maskanlarining geografiyasi kengaytirilib, ularning yagona xaritasi yaratilmoqda"<sup>2</sup>. Darhaqiqat, hududlarda ziyorat turizmini

<sup>1</sup><https://oxfordbusinessgroup.com/reports/saudi-arabia/2023-report/>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi 25-sessiyasidagi nutqi (president.uz) <https://president.uz/oz/lists/view/6763>

rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlarini chuqur tahlil etish va tegishli dasturlar ishlab chiqishga asos bo'ladigan mukammal ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda hududlarning ziyorat turizmi salohiyatini oshirish bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, Turkiy davlatlar tashkilotining veb-portalida «Tabarruk ziyorat» turizm platformasini takomillashtirish, ziyorat va madaniy-tarixiy turizmni muntazam targ'ibot tadbirlarini tashkil etib borish, hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirish, mamlakatimizga tashrif buyurayotgan ziyoratchilar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, ziyoratgohlar, ulamolar va ularning ilmiy merosi haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlarni shakllantirish hamda ziyorat turizm salohiyatini to'liq o'rganish va ma'lumotlarni tizimlashtirish, shuningdek ziyorat turizmi sohasi ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2024-yil 12-yanvardagi "O'zbekiston respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-9-son Farmonlari, 2022 yil 29 iyuldagi PQ-338-son "Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-son, 2023-yil 27-iyuldagi "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-son Qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-fevraldagi 86-son "Turizm mahallalarida muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 24-fevraldagi 100-son "Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi<sup>3</sup>.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Iqtisodiy adabiyotlarda hamda turizm sohasiga oid ilmiy ishlarda ziyorat turizmini rivojlantirishning nazariy-metodologik jihatlari ko'plab xorijlik olimlar, jumladan: G.Richards<sup>4</sup>, J.Wilson<sup>5</sup>,

<sup>3</sup> <https://lex.uz> — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

<sup>4</sup> <https://scholar.google.com/citations?hl=ru&user=6lkhTiYAAAAJ>

<sup>5</sup> Greg Richards, Julie Wilson—"Today's youth travellers, tomorrows global nomads: New horizons in independent youth and student travel: A report for the International Student Travel Confederation (ISTC) and the Association of Tourism and Leisure Education (ATLAS)" International Student Travel Confederation, 2003.

Richard George, Brian King<sup>6</sup> A.Yu.Aleksandrova, I.T.Balabanov, M.A.Jukova, M.B.Birjakov, Yu.A.Barzikin, N.I.Kabushkin, R.V.Kolotova, A.E.Saak, V.A.Kvartalnov<sup>7</sup> va boshqa olimlar tomonidan yoritilgan.

Ziyorat turizmini tadqiq etishda mamlakatimiz olimlardan Q.X.Abdurahmanov, N.T.To‘xliyev, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, A.A.Eshtayev, B.Sh.Safarov, O.M.Pardayev, M.T.Aliyeva, O.H.Xamidov, A.N.Norchayev, A.T.Mirzayev, N.S.Ibragimov, B.H.To‘rayev, I.A.Axmedov<sup>8</sup> kabi iqtisodchi olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

Shu bilan birga, turizm sohasining rivojlanishi tendensiyalarining ayrim jihatlari, shuningdek turistik hududlarning turistik raqobatbardoshligini oshirish, hududlar turistik jozibadorligini oshirish, turizm sohasining ijtimoiy tarmoqlardagi faolligini oshirish kabi masalalarga keng to‘xtalib o‘tganlar. Biroq, yurtimizda ziyorat turizmini yanada rivojlantirish, ziyorat destinatsiyalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va aynan mamlakatimizni ziyorat qilish uchun keluvchi turistlar sonini oshirishga qaratilgan ilmiy ishlar yetarli darajada emas.

Turizm sohasida ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etishga doir tadqiqotlarda ziyorat turizmiga oid destinatsiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga doir tadqiqotlarda yetarlicha o‘rganilmaganligi, turizm sohasida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmdan foydalanish samaradorligini oshirishda madaniy-tarixiy resurslardan samarali foydalanish

---

<sup>6</sup> Creating a scale for assessing socially sustainable tourism. H Qiu Zhang, DXF Fan, TSM Tse, B King - Journal of Sustainable Tourism, 2017

<sup>7</sup> Александрова А. Ю. Международный туризм. Учебное пособие для вузов. - М.: Аспект Пресс, 2001.- 464 с.; Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. -М.: Финансы и статистика, 2003. -176 с.; Биржаков М.Б. Введение в туризм. - Издание 9-е переработанное и дополненное.- СПб.: «Издательский дом Герда», 2007. - 576 с.; Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе. Учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2006. -160 с.; Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма: Учебник. 4е изд., стереотип. Мн.: Новое знание, 2004. -409 с.; Квартальнов В.А. Туризм: история и современность: Избр. произведения: В 4-х т. -М.: Финансы и статистика, 2002. - 499 с.; Саак А.Э., Пшеничных Ю.А. Менеджмент в социально-культурном сервисе и туризме. -СПб.: Питер, 2006. - 512 с.; Чудновский А.Д., Жукова М.А. Менеджмент в туризме и гостиничном хозяйстве. - М.:КНОРУС, 2005.- 320 с.; 698 с.; А.Б.Косолапов Туристское страноведение. Европа и Азия: учебно – практическое пособие. – 2-е изд., стер– М.2006-400с.

<sup>8</sup>Абдурахмонов К.Х. Менежмент туризма: Учебное пособие. – Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В. Плеханова» в г. Ташкенте, 2013. -248 с.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. – Т.: Гос. Науч. Изд. "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006. -386 с.; Pardayev M.Q., Atabayev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. -Samarqand: SamISI, 2006. – 137 b.; Tuxliev I. Turizm asoslari. Samarqand: SamISI. 2015. – 271 b.; Eshtayev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O‘zbekiston Respublikasi turizm tarmog‘i misolida). DSc. Dissertatsiya avtoreferati – Samarqand. 2019.-246 b.; B.Sh. Safarov Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari. //Monografiya. -T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2016. –148 b.; Pardayev O.M. Menejment. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2019. –248 b.; Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari: iqt.fan.dok. diss. avtoref. – S.: SamISI, 2019. -77 b; Hamidov O.H., Norchayev A.N. Ekoturizm. — Darslik. — T.: TDIU, 2011. -138 b.; Norchayev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari. DSc. Dissertatsiya avtoreferati-Toshkent. 2021.; Mirzayev A.T. O‘zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. DSc. diss. avtoref. – Toshkent, 2021. –68 b.; Ibragimov N.S., Turistik hududni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari // Buxoro: Durdon nashriyoti 2020. – 204 b.; Тураев Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов функционирования регионального туризма: -док.дисс. автореф., 2011.– 38 с.; М.М.Irmatov, I.A.Axmedov.Turizm rivojlanishini rejalashtirish. O‘quv qo‘llanma. TDIU, 2004. -132 b.

tizimini o'rganishni, turizm sohasida rivojlantirishni modellashtirish tizimini takomillashtirish hamda baholashni takomillashtirish mazkur mavzuning alohida dolzarbligini bildiradi. Shuningdek, Samarqand viloyati misolida o'rganildi, shuningdek, mavzu bo'yicha tegishli ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining №SRITU-18/02-"Turizm va madaniy meros sohalarini samarali rivojlantirishning innovatsion usullari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga mos keladi.

**Tadqiqotning maqsadi** mamlakatimiz, jumladan Samarqand viloyati ziyorat turizmiga oid destinatsiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ziyorat turizmi bilan bog'liq tushunchalarning mohiyati, tavsifi va ta'riflarining nazariy masalalarini tadqiq qilish hamda tegishli tavsiyalar berish;

ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish va mamlakatimizda qo'llash bilan bog'liq ilmiy tavsiya va amaliy takliflarni ishlab chiqish;

Samarqand viloyati ziyorat turizmiga doir ayrim statistik ko'rsatkichlarni tahlil qilgan holda, ziyoratgoh obyektlarda turistlarning tomosha vaqtini uzaytirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

Samarqand viloyatidagi ziyorat turizmi destinatsiyalarining ziyorat-ibodat-ekskursiya tamoyili asosida darajasini baholash hamda ularni rivojlantirishga doir tavsiyalarni ishlab chiqish;

Samarqand viloyatidagi ziyorat turizmi destinatsiyalarini rivojlantirish muammolari, imkoniyatlari va ular bilan bog'liq omillarni tahlil qilish hamda obyektlardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

Samarqand viloyatida joylashgan ziyorat turizmi obyektlariga xorijiy turistlar tomonidan amalga oshirilgan tashriflar soni hamda ularga bog'liq omillar korrelyatsion tahlil qilinib, 2026-yilgacha bo'lgan xorijiy tashriflar sonining kvartallar bo'yicha prognoz qiymatlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida mamlakatimizda, jumladan Samarqand viloyati turizm sohasidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning iqtisodiy faoliyati olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib ziyorat turizmiga oid destinatsiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada analiz va sintez, abstrakt-mantiqiy tahlil, ekonometrika, kuzatish, qiyoslash, korrelyatsiya, regressiya, statistik va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat.

buyuk allomalarimiz merosi, buddizm va yahudiylik dinlari ziyoratchilarini aniq aviareyslar bo'yicha qabul imkoniyatlari hamda qo'shni mamlakatlar salohiyatidan kelib chiqib, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlardan 2026-yilga qadar mamlakatimizga 5 milliondan ortiq turist jalb etilib, 1,3 milliard AQSh dollariga yaqin turizm xizmatlari eksport qilishga erishish maqsadida Turkiy

davlatlar tashkilotining veb-portalida «Tabarruk ziyorat» turizm platformasini ishlab chiqish va doimiy takomillashtirish bo'yicha takliflar asoslangan;

hududlarning ziyorat turizmi salohiyatini oshirish bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish yo'nalishida hadisshunos olimlarimiz Imom al-Buxoriy, Muxammad ad-Dorimiy va Abu Iso at-Termiziy merosiga 101 ming, Abu Mansur al-Moturidiy merosiga 26,2 ming qiziquvchilarni hamda Naqshbandiya tariqati izdoshlari bo'lgan 43,3 ming, Pahlavon Mahmud merosi va pahlavoniya tariqati izdoshlari bo'lgan 3 ming, yahudiylar dini merosiga talabgor 39,8 ming ziyoratchilar jalb etish asosida turkiy davlatlarning tadbirkorlik sub'ektlari, ommaviy axborot vositalari vakillari, jurnalist va blogerlar uchun O'zbekistonga «Tabarruk ziyorat» xalqaro mediatuvi va infoturlarni tashkillashtirish bo'yicha takliflar dalillangan;

hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirish, mamlakatimizga tashrif buyurayotgan ziyoratchilar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida respublikamizda Islom mamlakatlarining standartlashtirish va metrologiya institutining «OIC/SMIC 9:2019. Halol turizm xizmatlari. Umumiy talablar» standartini ishlab chiqish asosida joylashtirish vositalari va turoperatorlarni sertifikatlashtirish bo'yicha takliflar asoslangan;

ziyosat turizmiga oid destinatsiyalarning turistlik salohiyati, madaniy meros resurslari va hududlarda turizmni samarali rivojlantirish ko'rsatkichlarning prognoz hisob-kitoblari asosida 2028 yilgacha bo'lgan o'rta muddatli ishlab chiqilgan prognoz parametrlarini qo'llash dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ziyosat va madaniy-tarixiy turizmni muntazam targ'ibot tadbirlarini tashkil etib borishda Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida o'zaro hamkorlik orqali "Tabarruk ziyorat" brendini yaratish va targ'ib qilish asosida ziyorat va madaniy meros ob'ektlariga ziyorat turlarni tashkil qilish va yangi turistik marshrutlarini ishlab chiqishda Qo'qon va Marg'ilon shahrini «UNESCO Creative Cities Network» indeksiga kiritish choralarini ko'rish bo'yicha amaliy tavsiyalari asoslangan;

«Har bir oila – tadbirkor» dasturi doirasida ustuvor ravishda «Imom Al-Moturidiy» maqbarasi va «Imom Al-Buxoriy» majmuasi ziyoratgohlari atrofida halol turizm talablariga javob beradigan oilaviy mehmon uylarini tashkil qilish maqsadida umumiy ovqatlanish sohasida xo'jalik yurituvchi subyektlarga 33 mln so'mgacha kredit mablag'larini ajratish bo'yicha taklif asoslangan;

ziyosatgohlar, ulamolar va ularning ilmiy merosi haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlarni shakllantirish hamda ziyorat turizm salohiyatini to'liq o'rganish va ma'lumotlarni tizimlashtirish maqsadida Samarqand shahrida «Imom Buxoriy» nomidagi xalqaro hadisshunoslik va «Sahihul Buxoriy» eng qadimiy va nodir qo'lyozma nusxalarining jahon kutubxonalarida saqlanish tarixi bo'yicha xalqaro tadbirlarni tashkil qilish choralarini ko'rishga qaratilgan takliflar asoslangan;

har yili «Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi» va uning doirasida «Milliy ohanglari» festivali, «Mir Arab madrasasi bitiruvchilari» forumi, «Milliy liboslar ko'rgazmasi» yosh dizaynerlar festivalini o'tkazish bo'yicha takliflar asoslangan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiya ishida qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy

manbalar orqali, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi “Vaqf” xayriya jamoat fondi, O‘zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyining statistik ma’lumotlari va davriy hisobotlaridan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining ijtimoiy so‘rovnomalari, matematik-statistika usullari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va metodologik-uslubiy asoslar hududlarda ziyorat turizmini samarali rivojlantirishga, milliy turizm mahsulotining jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga hamda tahlil qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan respublikada turizm xizmatlar bozorini rivojlantirishda, investitsiyalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda, tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni, hududlardagi turistik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi muassasalar faoliyatini takomillashtirishga doir tadbirlarni ishlab chiqishda, shuningdek, 2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekiston rivojlanish strategiyasining ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muayyan darajada xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbekiston hududlarida ziyorat turizmini samarali rivojlantirishning istiqbollari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

buyuk allomalarimiz merosi, buddizm va yahudiylar dinlari ziyoratchilarini aniq aviareyslar bo‘yicha qabul imkoniyatlari hamda qo‘shni mamlakatlar salohiyatidan kelib chiqib, Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo davlatlardan 2026-yilga qadar mamlakatimizga 5 milliondan ortiq turist jalb etilib, 1,3 milliard AQSh dollariga yaqin turizm xizmatlari eksport qilishga erish maqsadida Turkiy davlatlar tashkilotining veb-portalida «Tabarruk ziyorat» turizm platformasini ishlab chiqish va doyim takomillashtirish bo‘yicha asoslangan takliflar 2022 yil 29 iyuldagi PQ-338-son “Turkiy dunyo doirasida «Tabarruk ziyorat» turizm konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar” rejasiga kiritilgan (Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024-yil 28-oktabrdagi 03-12-17-7257-sonli ma’lumotnomasi). Taklifning amalga oshirilishi natijasida Samarqand viloyatida ziyorat turizmi xizmatlarining 30 % ortishiga imkon yaratilgan;

hududlarning ziyorat turizmi salohiyatini oshirish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirish yo‘nalishida hadisshunos olimlarimiz Imom al-Buxoriy, Muxammad ad-Dorimiy va Abu Iso at-Termiziy merosiga 101 ming, Abu Mansur al-Moturidiy merosiga 26,2 ming qiziquvchilarni hamda Naqshbandiya tariqati izdoshlari bo‘lgan 43,3 ming, Pahlavon Mahmud merosi va pahlavoniyah tariqati izdoshlari bo‘lgan 3 ming, yahudiylar dini merosiga talabgor 39,8 ming ziyoratchilar jalb etish asosida turkiy davlatlarning tadbirkorlik sub’ektlari,

ommaviy axborot vositalari vakillari, jurnalist va blogerlar uchun O‘zbekistonga «Tabarruk ziyorat» xalqaro mediatori va infoturlarni tashkillashtirish bo‘yicha asoslangan taklifi 2022-yil 29-iyuldagi PQ-338-son “Turkiy dunyo doirasida «Tabarruk ziyorat» turizm konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar” rejasiga kiritilgan (Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024-yil 28-oktabrdagi 03-12-17-7257-sonli ma’lumotnomasi) Taklifning amalga oshirilishi natijasida Samarqand viloyatiga har yili qo‘shimcha 200 ming turistni jalb etish imkonini bergan;

hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirish, mamlakatimizga tashrif buyurayotgan ziyoratchilar uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida respublikamizda Islom mamlakatlarining standartlashtirish va metrologiya institutining «OIC/SMIIC 9:2019. Halol turizm xizmatlari. Umumiy talablar» standartini ishlab chiqish asosida joylashtirish vositalari va turoperatorlarni sertifikatlashtirish bo‘yicha asoslangan takliflar 2021 yil 9 fevraldagi PF-6165-son “Hududlarda turistlar oqimini shakllantirish va ular uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari” dasturiga kiritilgan (Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024-yil 28-oktabrdagi 03-12-17-7257-sonli ma’lumotnomasi) Ilmiy natijalardan foydalanish asosida ziyorat turizmi xizmatlari ko‘rsatish samaradorligini 15%ga oshirish imkoniyati yaratilgan;

ziyosat turizmiga oid destinatsiyalarning turistlik salohiyati, madaniy meros resurslari va hududlarda turizmni samarali rivojlantirish ko‘rsatkichlarning prognoz hisob-kitoblari asosida 2028 yilgacha bo‘lgan o‘rta muddatli ishlab chiqilgan prognoz parametrlarini qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar Turizm qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan «2024-2027 yillarda hududlarning turizm salohiyatini izchil o‘rganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar» dasturi va «Yo‘l xaritalari»ga kiritilgan (Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024-yil 28-oktabrdagi 03-12-17-7257-sonli ma’lumotnomasi). Olingan natijalar turistik destinatsiyalarda ziyorat turizmiga qo‘yilgan talablarni e‘tiborga olgan holda tegishli parametrlarni qo‘llash hisobiga hududlar infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya ishi mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 102 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob’ekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ziyorat turizmiga oid destinatsiyalarni rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ziyorat turizmini rivojlantirishning nazariy asoslari va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, ziyorat turizmini rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni mamlakatimizda qo‘llashning iqtisodiy afzalliklari hamda rivojlantirish omillari tadqiq qilingan.

Globalashuv sharoitida «ziyosat turizmi» tushunchasining to‘g‘ri talqin etish va uning mazmunini o‘zlashtirish ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda xorijiy va respublikamiz olimlari tomonidan “Ziyorat turizmi” tushunchasini tadqiq qilish bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Ziyorat turizmi bo‘yicha rossiyalik olim A. Babkinning fikricha, ziyorat turizm, bu biron – bir dinga e‘tiqod qiluvchi kishilarning ziyorat qilish maqsadida muqaddas joylarga borishi hisoblanadi<sup>9</sup>.

K.Mazin ziyorat – diniy hayotni vujudga kelishi, turizm-madaniy hayotni vujudga kelishi, deb hisoblaydi va u ziyoratni turizm sifatida e‘tirof etilishiga umuman qo‘shilmaydi<sup>10</sup>.

O‘zbekistonlik olim A.Xudoyarovning fikricha, ziyorat turizmi muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish, ulug‘ ajdodlarimizga ehtirom ko‘rsatish, ularning o‘tmishdagi hayoti va yaratgan madaniy-me‘moriy hamda tarixiy merosi bilan tanishish, ularni xotirlash, shuningdek, diniy va dunyoviy marosimlarda qatnashish maqsadida amalga oshiriladigan safarlarni o‘z ichiga oladi<sup>11</sup>.

I.Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.S.Safarovning “Turizm asoslari” darsligida turizmning tizim sifatidagi asosiy yo‘nalishlariga oid tushuncha va atamalar tasniflangan<sup>12</sup>.

Fikrimizcha, yuqoridagi qarashlarni nazariy jihatdan tahlil qilib, bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda, yuqorida qayd etilgan tushunchani quyidagicha izohlash maqsadga muvofiq. Bizning fikrimizcha, ziyorat turizmi bu – kishining diniy aqidasi muqaddas sanalgan qadamjolariga tashrif buyurishi, ehson qilishi hamda diniy marosimlarda ishtirok etishi orqali ruhiy poklanishi kabi jarayonlar yig‘indisidir.

<sup>9</sup> Бабкин А.В. Специальные виды туризма: учебное пособие – Ростов н/Д., 2008. 117 с. 6.

<sup>10</sup> Мазин К. Паломничество и туризм: сравнение сквозь призму тысячелетий // Современные проблемы сервиса и туризма. 2009. №4. с.8-24.

<sup>11</sup> Худояров А. Ўзбекистонда зиёрат туризмни ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмлари: Монография / Тошкент: ООО “Complex Print”, 2021. -304 б.

<sup>12</sup> Tuxliyev, I., Hayitboyev, R., Safarov, B. S., & Tursunova, G. R. (2012). Turizm asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.


Yurtimizda islom madaniyati va uning soʻfiylik oqimiga oid koʻplab muqaddas joylar mavjud. Eng qimmatbaho yodgorliklar YUNESKONing Butunjahon merosi obyektlari sifatida tan olingan.

Oʻzbekiston Respublikasida joylashgan moddiy-madaniy meros obyektlarining aksariyati islomiy meʼmorchilik uslubida barpo etilgan boʻlib, hatto baʼzilarida bezaklar oʻrnida Qurʼon oyatlari yoki hadisi sharifdan ayrim qisqartmalar keltirilgan.

Yurtimiz musulmon sayyohlarni qabul qilishda katta salohiyatga ega. Bu islomiy yodgorliklarimiz nafaqat musulmon sayyohlarni, balki boshqa din vakillarini ham mamlakatimizga boʻlgan qiziqishini uygʻotishga sababchi boʻlmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Samarqand viloyatida ziyorat turizmiga oid destinatsiyalarni rivojlantirish holati”** deb nomlangan boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasida, xususan, Samarqand viloyatida joylashgan ziyorat turizmiga oid destinatsiyalarning samaradorlik tahlili, hozirgi holati hamda rivojlantirish usullarini takomillashtirish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy koʻrsatkichlari tahlil etilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Statistika agentligining maʼlumotlariga asosan, mamlakatimizda 2023-yil 1-yanvar holatiga jami moddiy-madaniy meros obyektlari soni 1-rasmda keltrilgan<sup>13</sup>.




**1-rasm. 2023-yil Oʻzbekiston Respublikasidagi moddiy-madaniy meros obyektlarning tarkibiy tuzilishi<sup>14</sup>**

Fikrimizcha, respublikamizda ziyorat turizmini hozirgi holatini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Mamlakatimizda ziyorat maqsadida sayohatni amalga oshirgan hamda joylashtirish vositalarida tunab qolgan mahalliy va xorijiy turistlar haqidagi statistik maʼlumotlar bilan tanishamiz.

<sup>13</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Statistika agentligi maʼlumotlari

<https://daryo.uz/2022/07/07/ozbekistonda-qancha-moddiy-madaniy-meros-obyektlari-borligi-malum-qilindi/>

<sup>14</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Statistika agentligining maʼlumotlariga asosan muallif tomonidan shakllantirilgan



## 2-rasm. O‘zbekiston Respublikasidagi joylashtirish vositalarida 2018-2023 yillarda ziyorat maqsadida qabul qilingan turistlar soni haqida ma'lumot<sup>15</sup>

2-rasm ma'lumotlari ko'rsatishicha 2018-yilda respublikamizda 52 mingdan ziyotroq mahalliy turistlar ziyorat maqsadida joylashtirilgan bo'lsa, aynan shu maqsaddagi joylashtirilgan xorijiy turistlar soni 54 mingga yaqinni tashkil etgan. 2022-2023 yillarda ziyorat maqsadi bo'yicha joylashtirilgan mahalliy turistlar statistik ko'rsatkichlarida ketma-ket ikki yillik pasayishdan so'ng sezilarli o'sish tendensiyasi kuzatilgan hamda mos ravishda 61 785 va 61 460 nafarni tashkil etgan. Xuddi shu maqsadda joylashtirilgan xorijiy turistlar ko'rsatkichlarida esa 3 yillik davomli pasayishdan so'ng biroz o'sish qayd etilgan va 2022-yilda 19 260 kishi hamda 2023-yilda 35 707 kishidan iborat bo'lgan.

Hozirda O‘zbekiston Respublikasi bo'yicha ziyorat turlarini taklif etayotgan turistik tashkilotlar hamda turlarni o'rganish maqsadga muvofiq.

1-jadval ma'lumotlariga asosan, respublikamizda taklif etilayotgan ziyorat turlari davomiyligi aksariyat turfirmalarda 6 kundan ziyot lekin, har bir viloyatda ziyorat obyektlari bilan tanishish uchun aksariyat hollarda 2 kun vaqt ajratilmoqda. Samarqand, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarimizda joylashgan barcha ziyorat obyektlari bilan tanishish uchun 2 kun yetarli muddat emas.

Fikrimizcha, turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlar bilan hamkorlikda «Tabarruk ziyorat» turizm platformasini ishlab chiqish tashabbusi milliy turizm sohasini rivojlantirish va xalqaro miqyosda targ'ib qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu platformaga asoslangan takliflar quyidagi asosiy jihatlarga e'tibor qaratiladi:

1. Madaniy merosimizdagi va ma'naviy boyliklarni, shuningdek, buddizm va yahudiyluk dinlari bilan bog'liq ziyoratgohlarni xalqaro darajada tanitish, turizm platformasining asosiy vazifalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Bu orqali ko'plab xorijiy ziyoratchilarni jalb etish imkoniyati paydo bo'ladi.

2. Turistlar oqimini osonlashtirish uchun aviaqatnovlarni samarali tashkil etish, bunda qo'shni davlatlardan keluvchi ziyoratchilar uchun qulay logistika sharoitlari yaratish muhim ahamiyatga ega.

<sup>15</sup> O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

**O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha 2023-yilda taklif etilayotgan ziyorat turlari tahlili<sup>16</sup>**

№	Tur va turfirma nomi	Tur davomiyligi	Tur haqida qisqacha tavsif
1	Uzbekistan Sufi Tour – Seven Shrines <sup>17</sup> Oasis International Travel	7 kun 6 kecha	Toshkent-2 kun Samarqand-2 kun Buxoro-2 kun Toshkent-1 kun
2	Sufi Uzbekistan <sup>18</sup> Central Asia Travel	9 kun 8 kecha	Toshkent-2 kun Samarqand-3 kun Buxoro-3 kun Toshkent-1 kun
3	8 Days Piligrimage (Ziyarah) Tour <sup>19</sup> Euroasia Travels	7 kun 6 kecha	Toshkent-2 kun Buxoro-2 kun Samarqand-2 kun Toshkent-1 kun
4	Sufi Tour To Uzbekistan (Religious Tourism) <sup>20</sup> Minzifa Travel	8 kun 7 kecha	Toshkent-2 kun Samarqand-2 kun Shahrisabz-1 kun Buxoro-2 kun Toshkent-1 kun
5	Sufi Tour In Uzbekistan <sup>21</sup> Advantour	8 kun 7 kecha	Toshkent-2 kun Buxoro-2 kun Samarqand-3 kun Toshkent-1 kun
6	Uzbekistan Muslim Tour <sup>22</sup> Advantour	6 kun 5 kecha	Toshkent-2 kun Samarqand-2 kun Buxoro-1 kun Toshkent-1 kun
8	Mystical world of Sufism in Uzbekistan (8 Days) <sup>23</sup> Zamin Travel	8 kun 7 kecha	Toshkent-2 kun Samarqand-3 kun Buxoro-2 kun Toshkent-1 kun
9	Sufi tour in Uzbekistan <sup>24</sup> Anur Tour	7 kun 6 kecha	Toshkent-2 kun Samarqand-2 kun Buxoro-2 kun Toshkent-1 kun

3. Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida davlatlar o‘rtasidagi integratsiyani yanada kuchaytirish, o‘zaro turistik yo‘nalishlarni shakllantirish va mavjud salohiyatdan birgalikda foydalanish maqsad qilingan.

<sup>16</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>17</sup> <https://oasisinternational.travel/uzbekistan/tours/religious/sufi-tour/>

<sup>18</sup> <https://www.centralasia-travel.com/en/countries/uzbekistan/tours/sufi-uzbekistan>

<sup>19</sup> <https://ea-travel.uz/8-days-piligrimage-ziyarah-tour>

<sup>20</sup> <https://minzifatravel.com/trips/sufi-tour-to-uzbekistan/>

<sup>21</sup> <https://www.advantour.com/uzbekistan/tours/sufi-tour.htm>

<sup>22</sup> <https://www.advantour.com/uzbekistan/tours/uzbekistan-muslim-tour.htm>

<sup>23</sup> <http://www.zamin-travel.com/tours/piligrimage-tours/mystical-world-of-sufism-in-uzbekistan-8-days>

<sup>24</sup> <https://www.tourstouzbekistan.com/en/tours/sufi-tour.html>

4. Turistlar uchun qulay onlayn-platformani ishlab chiqish, unda ziyorat turizmiga oid barcha ma'lumotlarni, xizmatlar va marshrutlarni taqdim etish orqali mehmonlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish nazarda tutilgan.

Turkiy davlatlar tashkilotining veb-portalida «Tabarruk ziyorat» turizm platformasini ishlab chiqish tashabbusi mamlakatimizning xalqaro turizm bozoridagi o'rnini mustahkamlashga va qo'shni davlatlar bilan strategik hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Loyihaning amalga oshirilishi nafaqat milliy turizmni rivojlantirish, balki Turkiy davlatlar o'rtasidagi madaniy va ma'naviy aloqalarni yanada kuchaytirishga yo'naltiriladi.

Yuqoridagi fikrlar O'zbekiston hududlaridagi ziyorat turizmi salohiyatini oshirish maqsadida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan muhim tashabbuslarni aks ettiradi. Ushbu rejalarda tarixiy va diniy meroslarni tadqiq qilish, ularni targ'ib qilish hamda xorijiy mehmonlarni jalb etish orqali turizmni rivojlantirish asosiy maqsad qilib olingan. Bunda quyidagi yo'nalishlar alohida ahamiyatga ega:

1. Hadisshunos olimlarning merosini targ'ib qilish. Imom al-Buxoriy, Muhammad ad-Dorimiy, Abu Iso at-Termiziy va Abu Mansur al-Moturidiy kabi buyuk olimlarning ilmiy merosiga qiziquvchilar soni ko'pligi e'tiborga olinib, bu yo'nalishda maxsus infoturlar tashkil etish maqsadga muvofiq;

2. Naqshbandiya tariqati va Pahlavoniya merosini targ'ib qilish. Naqshbandiya tariqati izdoshlari va Pahlavon Mahmud merosiga qiziquvchi ziyoratchilar uchun maxsus turistik dasturlar tashkil etish hamda ushbu dasturlar yordamida milliy madaniyat va tarixiy qadriyatlarni targ'ib qilishga erishish;

3. Yahudiylar dini merosiga qiziqishni rag'batlantirish. Yahudiy dini merosiga qiziquvchi mehmonlar uchun maxsus yo'nalishlar ishlab chiqilib, ushbu sohada boy madaniy merosni namoyish qilish ko'zda tutilgan;

4. Turkiy davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash. Turkiy davlatlardagi tadbirkorlik subyektlari, OAV vakillari, jurnalistlar va blogerlar uchun O'zbekistonda «Tabarruk ziyorat» xalqaro mediatori va infoturlarni tashkil etish turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu tashabbus orqali ziyorat turizmi salohiyati nafaqat O'zbekiston, balki mintaqaviy miqyosda ham oshiriladi.


Mazkur chora-tadbirlar nafaqat turizmni rivojlantirishga, balki madaniy merosni keng targ'ib qilish, mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, mahalliy tadbirkorlar va turizm kompaniyalari uchun yangi imkoniyatlar eshigi ochiladi.

Samarqand viloyatida joylashgan 1607 ta moddiy-madaniy meros obyektlarining qimmatliligi bo'yicha 1011 tasi Respublika miqyosida 596 tasi mahalliy darajada muhim ahamiyatga ega hisoblanadi<sup>25</sup>. Samarqand shahri tarixiy qismining hududi 1 123 gektar bo'lib, u YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Umumiy muhofaza qilinadigan maydon esa bufer zonalar bilan birgalikda 1 369 gektarni tashkil etadi.

---

<sup>25</sup> <https://sv.zarnews.uz/post/7n9k>


Samarqand viloyatiga amalga oshirilgan jami safarlar hamda ulardan ziyorat maqsadidagilari bilan tanishamiz.



**3-rasm. 2018-2023 yillarda Samarqand viloyatida amalga oshirilgan jami safarlar soni hamda ziyoratgohlarga tashriflar haqida ma'lumot<sup>26</sup>**

3-rasmga asosan, Samarqand viloyatida amalga oshirilgan safarlar soni 2023-yilda 2018-yilga nisbatan o'sishni qayd etgan bo'lsada, diniy joylar va ziyoratgohlarga tashrif ko'rsatkichlari kamayganini ko'rishimiz mumkin.

2018-2023-yillarda Samarqand viloyatida ziyorat maqsadida tashrif buyurgan hamda jamoaviy joylashtirish vositalarida qabul qilingan mahalliy va xorijiy turistlar haqidagi statistikani ko'rib chiqamiz.



**4-rasm. 2018-2023 yillarda Samarqand viloyatiga ziyorat maqsadi bo'yicha joylashtirilgan mahalliy va xorijiy turistlar soni haqida ma'lumot<sup>27</sup>**

<sup>26</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

<sup>27</sup> Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

Keltirilgan 4-rasmga asosan, 2018-yilda Samarqand viloyatidagi joylashlashtirish vositalarida ziyorat maqsadida tashrif buyurgan 20 882 ta xorijiy turistlar qabul qilinib, ayni shu davrda 17 505 nafar mahalliy turistlar tunab qolish vositalarida joylashtirilgan. 2021-2023 yillarda esa ichki va xorijiy tashriflarda oʻsish tendensiyasi kuzatilgan.

Hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirish va mamlakatimizga tashrif buyurayotgan ziyoratchilar uchun qoʻshimcha shart-sharoitlar yaratish maqsadida Islom mamlakatlarining Standartlashtirish va Metrologiya Institutining (SMIIC) «OIC/SMIIC 9:2019. Halol turizm xizmatlari. Umumiy talablar» standartini joriy etish juda muhim. Bu standart asosida joylashtirish vositalari, shuningdek, turoperatorlarni sertifikatlashtirish ziyorat turizmi uchun qulay sharoitlar yaratish hamda musulmon sayyohlarning diniy ehtiyojlarini inobatga olishga yordam beradi.

Ziyorat turizmini rivojlantirishda «OIC/SMIIC 9:2019» standartining roli bu Islom mamlakatlaridan kelgan ziyoratchilar uchun diniy qadriyatlarga mos servis yaʼni halol taomlar, shariatga mos mehmonxona hamda transport xizmatlarini taqdim etish. Bu orqali ziyoratchilarning diniy ehtiyojlari qondiriladi. Ziyorat turizmi bilan shugʻullanuvchi turoperatorlar va joylashtirish vositalarini sertifikatlash orqali ziyorat qiluvchilar uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, yoki oʻzgartirilgan turistik infratuzilmani halol talablar asosida rivojlantirish (halol mehmonxonalar, shariatga mos ovqatlanish joylari, maxsus ziyorat joylari va boshqalar). Joylashtirish vositalarini musulmon sayyohlarning diniy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, yaʼni, namoz oʻqish joylari, halol taomlar va boshqa shart-sharoitlar bilan jihozlanishi natijasida Islom mamlakatlaridan tashrif buyuradigan sayyohlar sonining ortishi hamda ular uchun moʻljallangan xizmatlar sifatining yaxshilanishiga erishiladi. Bu, oʻz navbatida, ziyoratchilarga xizmat koʻrsatuvchi tashkilotlar oʻrtasida raqobatni oshiradi va sifatni yaxshilaydi. Halol turizm boʻyicha umumiy talablarni joriy etish, yuqori sifatli xizmat koʻrsatishni kafolatlaydi, bu esa mamlakatning xalqaro turizm imijini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, OIC/SMIIC 9:2019 standartini joriy etish, ziyorat turizmiga mos sharoitlar yaratish, turoperatorlarni sertifikatlash va bu xizmatlarning sifatini nazorat qilish orqali mamlakatimizda ziyorat turizmi sohasini rivojlantirish mumkin. Bu, nafaqat musulmon sayyohlarning diniy ehtiyojlarini qondirish, balki iqtisodiy oʻsish va xalqaro turizm bozorida muvaffaqiyatga erishish yoʻlida muhim qadam boʻladi.

Fikrimizcha, Samarqand viloyatidagi ziyoratgoh obyektlardan samarali foydalanish koʻrsatkichini aniqlash maqsadga muvofiq. Ushbu koʻrsatkichni aniqlashda ziyoratgoh bilan tanishish maqsadida tashrif buyurgan turistlardan tushgan mablagʻlarni tashrif buyurgan turistlar soniga boʻlish yoʻli bilan aniqlanadi:

$$Mm = Pm/Ts; \quad (1)$$

bu yerda, **Pm** - tashrif buyurgan turistlardan tushgan mablagʻlar,  
**Ts** - tashrif buyurgan turistlar soni

**Samarqand viloyati ziyoratgoh obyektlaridan samarali foydalanish  
ko'rsatkichlarini aniqlash uchun tanlangan omillar<sup>28</sup>**

Omillar nomi	Formuladagi belgisi
Ziyoratgoh obyektlarga tushgan o'rtacha pul mablag'lari (ming so'm)	<b>Pm</b>
Ziyoratgoh obyektlarni tomosha qilish uchun sarflanadigan o'rtacha vaqt, (daqqa)	<b>K</b>
Xorijiy turistlarning viloyatda o'rtacha qolish muddati (kun)	<b>D</b>
Viloyatda 1 nafar xorijiy turistning o'rtacha xarajati (AQSh dollar)	<b>S</b>
Viloyatning turistik xizmatlar eksporti (ming dollar)	<b>Y</b>
Samarqand viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni (nafar)	<b>E</b>
Ziyoratgoh obyektlarga tashrif buyurgan jami turistlar, (nafar)	<b>Ts</b>

Tadqiqotlar natijasida, ushbu ko'rsatkichning o'zgarishiga quyida keltirilgan omillar ta'sir qilishi aniqlandi.

1. Ziyoratgoh obyektlarga tushgan o'rtacha pul mablag'larning obyektlarni tomosha qilish uchun sarflanadigan o'rtacha vaqtga nisbati ( $Z1=Pm/K$ ).

2. Ziyoratgoh obyektlarni tomosha qilish uchun sarflanadigan o'rtacha vaqtning xorijiy turistlarning viloyatda o'rtacha qolish muddatidagi hissasi ( $Z2=K/D$ ).

3. Xorijiy turistlarning Samarqand viloyatida o'rtacha qolish muddatining 1 nafar xorijiy turistning o'rtacha xarajatlariga nisbati ( $Z3=D/S$ ).

4. Bir nafar xorijiy turist o'rtacha xarajatlarining viloyatning turistik xizmatlar eksportidagi ulushi ( $Z4=S/Y$ )

5. Samarqand viloyati xizmatlar eksportining viloyatga tashrif buyurgan xorijiy turistlarga nisbati ( $Z5=Y/E$ ).

6. Viloyatga jami tashrif buyurgan xorijiy turistlarning ziyoratgoh obyektlarga tashrif buyurgan turistlarga nisbati ( $Z6=E/Ts$ ).

Yuqoridagi omillarning o'zaro bog'liqligini aniqlash uchun iqtisodiy tahlilning multiplikativ modelidan foydalanish maqsadga muvofiq hamda quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya qilamiz:

$$Mm = Z1 * Z2 * Z3 * Z4 * Z5 * Z6 ; \quad (2)$$

$$Ya'ni Mm = \frac{Pm}{K} * \frac{K}{D} * \frac{D}{S} * \frac{S}{Y} * \frac{Y}{E} * \frac{E}{Ts} ; \quad (3)$$

Ushbu modelga keltirilgan kasrli amallarni qisqartirish natijasida 1 formula kelib chiqadi, shuning uchun 1, 2 hamda 3 formulalar teng kuchli hisoblanadi.

Natijaga ta'sir qiluvchi oltita omillarning ta'sirini iqtisodiy tahlilning bir qancha usullari bilan topish mumkin. Biz zanjirli almashtirish usulidan foydalanishni maqsadga muvofiq deb topdik. Ushbu usul bilan natija o'zgarishiga omillar ta'sirini aniqlaganda natija ko'rsatkichini shu omilning o'zgarishi bilan qayta hisoblab olinadi. Bunda ushbu ko'rsatkichga qaysi omilning ta'siri hisoblanish kerak bo'lsa, o'sha omilning haqiqiy miqdori olinadi va undan oldingi joylashgan omillarning haqiqiy miqdori va undan keying joylashgan omillarning rejadagi miqdori olinib natija ko'rsatkichi hisoblanadi.

<sup>28</sup> Muallif ishlanmasi

Natija ko'rsatkichining o'zgarishiga omillar ta'siri natijaning umumiy farqiga teng bo'ladi. Amaliy ma'lumotlarni qo'llab masalani yechish uchun quyidagi jadvalni tuzib olamiz.

### 3-jadval

